

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **26950,7 mlrd. so'mni**, o'sish **155,8 %** ni;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **21323,7 mlrd. so'mni**, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **164,8 %** ni;
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **79,1 %** ni;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **19,8 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan **26950,7 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **155,8 %** ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **98,0** foizni, o'sish sur'ati **157,4** foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,5** foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **95,9** foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **105,7** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **26402,0** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **98 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **398,2** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,5 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **44,8** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni) tashkil etdi.




Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 63,3 % ulushini), Andijon shaharlari (15,7 %), Honobod shaharlari (3,5 %), Shahrixon (2,5 %), Xo'jaobod (1,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

I-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,4 %), Buloqboshi (0,7 %), va Paxtaobod (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 135,4 % ga), Honobod (123,6 % ga) shaharlarida, Asaka (189,3 % ga), Qo'rg'ontepa (114,6 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **21323,7** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **164,8** %, jami sanoatdagi ulushi esa **79,1** % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

2-diagramma




Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida (54008,0 ming so'm), Honobod shahrida (22764,7 ming so'm), Andijon shahrida (9824,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8867,7 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,8 % tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqbo'shi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtaobod tumanida (99,9 %), Shaxrixon tumanida (91,5 %) va Oltinko'l tumanida (89,5 %) tashkil etdi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,1 %), Honobod shahri (14,0 %) kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o`shining omillaridan biridir

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o`shishi bo`yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo`lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o`shining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida **4995,5** mlrd.so`mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2017 y. yanvar-dekabr	2018 y. yanvar-dekabr
Loyihalar soni,birlik	54	51
Korxonalar soni,birlik	33	38
Ishlab chiqarish hajmi,mlrd.so`m	1844,0	4995,5
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln AQSh doll.	45,6	11,1
Yaratilgan yangi ish o`rinlari,birlik	34	18